



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD  
RAXMATULLAYEVICH**  
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:  
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**  
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi  
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**  
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini  
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga  
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**  
Правовые вопросы ведения интернет-  
ресурсов представительных органов  
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**  
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning  
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI  
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi  
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**  
Функции нотариата в современном  
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**  
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**  
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA  
O‘KTAMOVNA**  
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta’minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA  
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**  
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO‘YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**  
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./AQH09178>  
UDC: 34(042)(575.1)

## HUQUQIY EKSPERIMENTNI O'TKAZISH BOSQICHLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

**Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida  
dotsenti v.b., PhD  
ORCID: 0000-0003-3804-7210  
e-mail: xayitov085@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquqiy eksperiment tushunchasi, uning turlari hamda tasnifi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari milliy va xorij tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni uch bosqichda amalga oshirish taklif etilgan bo'lib, eksperiment o'tkazishga mas'ul bo'lgan subyektlar doirasi ham milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosatining, islohotlarining tegishli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholashda muhim bo'lgan asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi. Huquqiy eksperimentning har bir bosqichi mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlar va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanishi, uning ahamiyati hamda muhimligi asoslantirildi. Maqolada huquqiy eksperiment yuzasidan xulosa va takliflar ilgari surilgan. Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyektining ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** eksperiment, huquqiy eksperiment, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihasi, huquqiy eksperiment subyektlari, mas'ul subyektlar, huquqiy eksperiment bosqichlari, tartibga solish ta'sirini baholash.

### ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАВОВОГО ЭКСПЕРИМЕНТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

**Хайитов Шерзод Рахматуллаевич,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье на основе национального и зарубежного опыта анализируются понятие правового эксперимента, его виды и классификация, а также этапы проведения правового эксперимента. В частности, предлагается осуществлять подготовку и проведение правового эксперимента в три этапа, при этом круг субъектов, ответственных за проведение правового эксперимента, освещается в рамках национального законодательства. Было отмечено, что проведение правового эксперимента положительно влияет на соответствующую сферу государственной политики, реформы, однако выявлены некоторые проблемы, препятствующие использованию правового эксперимента. Из определения правового эксперимента выделены основные характеристики, важные для оценки его эффективности.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./DPED8349>  
UDC: 347.746.420(045)(575.1)

## MILLIY QONUN HUJJATLARIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING UMUMIY TAVSIFI HAMDA USHBU SOHA DOIRASIDA ANIQLANGAN MUAMMOLAR

**Jalilova Sardora Abduroziq qizi,**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi,  
ORCID:0009-0004-3345-1024  
e-mail: barristor1997@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy qonunchiligimizda mediatsiya institutining umumiy tavsiflari va ushbu sohada aniqlangan muammolar yoritilgan. Mediatsiya institutiga nisbatan milliy va Yevropa huquqshunolarining qarashlari va tahlillari keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada nizolarni muqobil hal etishning boshqa usullari ham keltirib o'tilgan. Hamda mediatsiya institutining dastlab qaysi mamlakatlarda shakllanganligi va qay usulda ushbu institut rivojlanganligi, shuningdek, bugungi kunda ushbu institutning nizolarni hal qilishda ko'rsatayotgan roli haqida ham tahlillar keltirilgan. Maqolaning keyingi qismida "Mediatsiya" institutining O'zbekiston qonunchiligiga kirib kelishi hamda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xronologiyasi tahlil qilingan. Va nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalanish O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatganligi yoritib berilgan. Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida sud hujjatlarini ijro etish bosqichida mediatsiya institutini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qancha huquqshunos olimlarning izlanishlari va takliflarini inobatga olgan holda qator takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** nizolarni muqobil hal qilish, muqobil yechim, hakamlik, muzokaralar, mediatsiya, mediatorlar, o'zaro maqbul kelishuvga erishish, mustaqil uchinchi shaxs, kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, hakamlik qarori, mediator figurasi.

### ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ ДОКУМЕНТАХ И ПРОБЛЕМЫ, ВЫЯВЛЕННЫЕ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

**Жалилова Сардора Абдурозик кизи,**  
преподаватель Кашкадарьинского  
областного юридического техникума

**Аннотация.** В данной статье дано общее описание института медиации в национальном законодательстве и выявленные в этой сфере проблемы. Представлены взгляды и анализ отечественных и европейских юристов относительно института медиации. В статье также упоминаются другие способы альтернативного разрешения споров. Указывается, в каких странах впервые сформировался и как развивался институт медиации, анализируется роль этого института в разрешении споров. Далее исследуется процесс внедрения института медиации в законодательство Узбекистана и хронология принятых нормативно-правовых документов. В процессе исследования данной темы выявлено, как использование медиации в разрешении конфликтов положительно повлияло на развитие гражданского общества в Узбекистане, дальнейшее развитие и совершенствование института медиации на стадии исполнения судебных документов. С учётом проведённого исследования и мнений ряда учёных-правоведов разработан ряд предложений и рекомендаций.

**Ключевые слова:** альтернативное разрешение спора, альтернативное решение, арбитраж, переговоры, посредничество, посредники, достижение взаимоприемлемого соглашения, независимая третья сторона, мировое соглашение, медиативное соглашение, арбитражное решение, фигура медиатора.

## GENERAL DESCRIPTION OF MEDIATION INSTITUTION IN NATIONAL LEGISLATIVE DOCUMENTS AND IDENTIFIED PROBLEMS IN THIS FIELD

**Jalilova Sardora Abduroziq qizi**

Teacher of Law College of Kashkadarya Region

**Abstract.** This article covers a general description of the institution of mediation in our national legislation and the problems identified in this field. In which countries the mediation institute was first formed and how this institute developed, as well as analyses of the role of this institute in resolving disputes, are presented. In the next part of the article, the entry of the “Mediation” institute into the legislation of Uzbekistan and the chronology of the adopted normative legal documents are analyzed. And how the use of mediation in conflict resolution had a positive effect on the development of civil society in Uzbekistan. This article presents the views and analyses of national and European jurists regarding the institution of mediation. The article also mentions other methods of alternative dispute resolution. In the process of researching this topic, further development and improvement of the institution of mediation at the stage of execution of court documents a number of proposals and recommendations have been developed, taking into account the research and proposals of several legal scholars.

**Keywords:** alternative dispute resolution, alternative solution, arbitration, negotiation, mediation, mediators, reaching a mutually acceptable agreement, an independent third party, settlement agreement, mediation agreement, arbitration decision, mediator figure.

### Kirish

Bugungi kunda nizolarni muqobil hal qilish usullari juda faol va keng rivojlangan. Mojaroning muqobil yechimi keng ma'noda suddan tashqari har qanday shaklda hal qilishni anglatadi. Nizolarni muqobil hal etish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: hakamlik, muzokaralar, mediatsiya.

Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan. Yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan [1]. Mediatsiya haqida huquqshunos olimlar turli xil ta'riflar bergan. Jumladan, huquqshunos Saymon Fisher “Mediatsiya – betaraf uchunchi tomonlar ishtirokida bahslarni yechishning muqobil va yashirin usuli”, deb atasa, A.Y. Konnov mediatsiyani muzokara sifatida ko'radi, lekin bunda muzokaraning mediatsiyadan asosiy

farqi yuzaga kelgan nizoni hal qilish maqsadida mustaqil uchinchi shaxs ishtirok etishini hisobga olish lozimligi hisoblanadi. Sh.M. Masadikov esa mediatsiyani taraflarga o'zaro maqbul kelishuvga erishishiga ko'maklashuvchi va qaror chiqarish huquqiga ega bo'lmagan betaraf mediator yordamida ular o'rtasidagi nizoni hal qilish usuli sifatida tushunadi. Nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalanish O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mediatsiyaning ijobiy roli shundaki, u tinchlik va zo'ravonliksiz madaniyatni eng yuqori qadriyat deb tan oladi. Mediatsiyaning maqsadi – jamoatchilik ongini “qayta ishga tushirish”, qarama-qarshi munosabatdan jamiyatning barcha a'zolarining o'zaro bog'liqligini ang'lash va tushunishdan iboratdir.

“Mediatsiya” so'zi lotin tilidagi “mediare” so'zidan olingan bo'lib, vositachilik qilish, ke-



lishtirish maqsadida aralashish degan ma'no-larini bildiradi. Bundan tashqari, Mediatsiya – bu o'zaro maqbul yechimga erishish uchun yuzaga kelgan nizoni uch tomonning ixtiyoriy roziligi asosida vositachining yordami bilan hal qilish usuli hisoblanadi [2]. Nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalanish O'zbekis-tonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mediatsiyaning ijobiy roli shundaki, u tinchlik va zo'ra-vonlik-siz madaniyatni eng yuqori qadriyat deb tan oladi. Mediatsiyaning maqsadi – jamoatchilik ongini "qayta ishga tushirish", qarama-qarshi munosabatdan jamiyatning barcha a'zolari-ni o'zaro bog'liqligini anglash va tushu-nishdan iboratdir.

Mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullariga nisbatan bir qator xususiyatlar va afzalliklarga ega.

Mediatsiya O'zbekiston hududida ham nizolarni hal qilishda u yoki bu shaklda il-garidan qo'llanib kelingan. Masalan, nizola-shayotgan taraflarni maslahat so'rab oqso-qollarga murojaat qilishi. O'zbekistonda me-diatsiyaga o'xshash yarashtiruv jarayonlari bugungi kunda turli nizolarni hal qilishda qo'llanib kelinmoqda. Nizolashayotgan tara-flarni (qo'shnilar o'rtasidagi nizolar, oilaviy nizolar) yarashtirish bo'yicha mahalla qo'mi-talarining faoliyatini mediatsiyaning ko'rini-shi sifatida baholash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to-monlarga nizolarni sudgacha hal qilish usul-larini qo'llash imkonini beradi. Fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida taraflar istalgan vaqt-da va istalgan instansiyada kelishuv bitimini tuzib sud protsessini tugatishlari mumkin. Kelishuv bitimiga erishish uchun esa taraf-lar mediatsiyaga murojaat etishlari mumkin. Bunda mediatsiya taraflarning yarashuvi va ularning kelishuv bitimiga erishishlari uchun huquqiy mexanizmni yaratuvchi mustaqil huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiya mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar-ni, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan

huquqlarni amalga oshirish yuzasidan, shart-noma va shartnomadan tashqari majburi-yatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko'p nizolarni hal etish-da qo'llanishi mumkin. Xususan, shartnoma-lar, oldi-sotdi shartnomasining barcha turlari, mulk ijarasi, pudrat, yuk tashish, sug'urta, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburi-yatlar, intellektual mulk, vorislik huquqi, chet el elementi bo'lgan fuqarolik-huquqiy muno-sabatlardan kelib chiqadigan nizolar.

Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadi-gan nizolar mediatsiyaning predmeti bo'li-shi mumkin. Mediatsiya nikoh shartnomasi, voyaga yetmagan bolalarni ta'minlash bo'yi-cha aliment munosabatlaridan kelib chiqa-digan nizolar va nikohdan ajratishda qo'lla-nishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 40-moddasining 2-qismiga asosan, nikohni sud tartibida ajratishda, sud ish-ning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotin-ga yarashish uchun olti oygacha muhlat ta-yinlashga haqli. O'zbekiston Respublikasida mediatsiyani qo'llash qonuniy belgilangan taqdirda er-xotinlar yarashuvga mediatsiya jarayonini o'tkazish orqali erishishlari mum-kin.

Aliment munosabatlarida mediatsiya ali-ment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan ali-ment oluvchi o'rtasida tuziladigan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga erishishga yordamlashuvchi vosita sifatida xizmat qili-shi mumkin. Shu bilan birga, voyaga yetma-gan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan, to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak [3].

Mediatsiya mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni, xususan, mehnat shartnomasidan, shuningdek, jamoalarga doir mehnat nizolarini hal etishda qo'llanishi mumkin. Mehnat shartnomasidagi taraflar o'z nizolarini sudga murojaat qilishdan oldin mediatsiyani qo'llash orqali hal etishlarini

kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuv xodim va ish beruvchiga birday foydali. Kelib chiqadigan nizo jamoatchilikka tarqalmaydi – bu ishchanlik obro‘si haqida o‘ylaydigan ish beruvchiga foydali, xodim esa o‘z vaqti va pulini sud instansiyalaridan o‘tishga sarflamaydi. Xodim va ish beruvchi kelishmovchiliklarni o‘zaro hal etib va kelishuv bitimiga erishib, mehnat munosabatlarini davom ettirishadi deb aytishga asoslar bor.

Avstriyaning 2004-yil 1-mayda qabul qilingan “Fuqarolik ishlari bo‘yicha vositachilik to‘g‘risida”gi Federal qonunida vositachilik taraflarning ixtiyoriyligiga asoslangan faoliyat turi sifatida belgilagan. Unga ko‘ra, maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan vositachi (mediator) o‘zaro aloqalarning e‘tirof etilgan usullari yordamida taraflar bilan nizoni hal etish maqsadida muntazam ravishda ish olib boradi. Germaniyaning 2012-yil 21-iyuldagi “Nizolarni suddan tashqari hal qilishning mediatsiya va boshqa taomillarini qo‘llab-quvvatlash haqida”gi Qonunida mediatsiyaga ta‘rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra mediatsiya – maxfiy va strukturaviy jarayon hisoblanib, taraflar bir yoki bir nechta mediatorlar ko‘magida ixtiyoriy va shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmalariga olgan holda kelishmovchiliklarni o‘zaro manfaatli asoslarda hal qilishga erishishlari tushuniladi [4]. Kanada Adliya vazirligining taqdim qilgan ma‘lumotlariga qaraganda, 2008-2009-yillarda majburiy mediatsiya taomili qo‘llangan ishlar bo‘yicha taraflar o‘rtasida kelishuvga erishish 40 %ni tashkil etgan bo‘lsa, majburiy mediatsiya nazarda tutilmagan oilaviy nizolar bo‘yicha to‘liq va qisman erishilgan kelishuvlar 2004-2005-yillarda 79 %ni, 2008-2009-yillarda esa 81 %ni tashkil etgan [5].

Mediatsiya aynan taraflari o‘rtasida uzoq davom etadigan munosabatlarda bo‘lgan nizolarni hal etish uchun mo‘ljallangan, mediatsiya jarayonida mediator yordamida erishilgan qarorlar esa taraflarning manfaatlariga asoslangan va kelajakdagi hamkorlikka yo‘naltirilgan.

Bir qarashda mehnat nizolari bo‘yicha komissiyalar mediator vazifasini bajarishi mumkindek ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan, mehnat nizolari komissiyalari ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi. Komissiyaga kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organidan ajratilgan a‘zolar tegishli organning qarori bilan, ish beruvchining vakili esa uning buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Biroq bunda mediatsiya jarayoniga mos kelmaydigan muayyan bir holat mavjud. Komissiya a‘zolari oldindan tasdiqlanadi, bu xodim va ish beruvchida komissiya a‘zolarining nomzodlarini tanlash huquqi yo‘qligidan dalolat beradi. Bu holat mediatsiya jarayonining talablariga javob bermaydi.

Mediatsiya tomonlar nizoni samarali hal etishlari va kelishuv bitimiga erishishlari uchun qulay huquqiy mexanizm yaratadi. O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tizimiga ushbu institutning tatbiq etilishi fuqarolar va tadbirkorlarga sud tizimiga murojaat etmasdan kelib chiqqan nizoni soddalashtirilgan tartibda hal etish imkoniyatini beradi va sudlardagi muayyan ish hajmining kamayishiga olib keladi.

Mediatsiyaning asosiy xususiyati uning amaliyligi va samaradorligi, shuningdek, nizoni hal qilish uchun vaqt va moliyaviy xarajatlarni tejashga imkon berishidir. Ammo asosiy xususiyati shundaki, vositachilikda tomonlar o‘zaro bir qarorga kelishadi va keyinchalik o‘z ixtiyori bilan bajariladi.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, vositachilikda ishtirok etayotgan tomonlar birgalikda hozirgi ziddiyatli vaziyatdan chiqish yo‘lini topadilar va protseduraning barcha ishtirokchilariga mos kelishuvga erishadilar. Jarayonning bir qismi sifatida vositachi tomonlarning hissiyotlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa kelajakda nizo va nizolashayotgan tomonlar uchun birgalikdagi o‘zaro manfaatli shartnomani ishlab chiqish uchun ruxsat olishga olib kelishi mumkin[6].



Adabiyotlarda mediatsiyaning quyidagi afzalliklari ta'kidlangan:

*Psixologik afzalliklari* – protseduraning insonparvarligi, sheriklik va do'stlikni tiklash va qo'llab-quvvatlash imkoniyati, kelajakda nizolarning oldini olish, manfaatlar va fikrlarni hisobga olish, tomonlarning qaror qabul qilishda faol ishtiroki, konfidentsiallik va tomonlar uchun o'zaro manfaatdorlik nizolarni hal qilishda vakolat.

Iqtisodiy foyda tomonlarning mojaroni hal qilish uchun sarflagan vaqtini, shaxsiy resurslarini va moliyaviy resurslarini tejashda ifodalanadi [7].

*Mavjudligi va ixtiyoriyligi.* Mediator o'zining shaxsiy hayot tajribasidan kelib chiqib, har qanday nizolarni qonunchilik talablari va tomonlarning manfaatlari, shuningdek, odob-axloq normalari asosida hal qilishda ishtirok etishi mumkin [8].

Shu bilan birga, tomonlar har qanday vaqtda ixtiyoriy ishtirok etish bilan ajralib turadigan vositachilik jarayonidan chiqish imkoniyatiga ega.

*Samaradorlik.* Mediatsiya butun jarayonni juda tez amalga oshirishi, shuningdek, murakkab protsessual tartibga solinmaganligi bilan ajralib turadi. Mediatsiyadagi tomonlar nizoni tez va o'zaro manfaatli hal qilishga qaratilgan va nizoni iloji boricha tezroq hal qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmoqdalar [9].

*Natijadorlik.* Mediator vositachilik jarayonining bir qismi sifatida nizolashayotgan tomonlarning manfaatlaridan kelib chiqadi va tomonlarni masalani erishilgan natijadan qoniqtiradigan tarzda hal qilishga undashga harakat qiladi. Mediator nafaqat mojaroga (kimning haq va kimning nohaqligini aniqlashga) yoki g'alaba qozonishga emas, balki yechimlarni konstruktiv izlashga va murosaga erishishga, o'zaro manfaatli hal qilishga qaratiladi [10]. Shuningdek, qarorni ishlab chiqish va qabul qilishda tomonlarning yetakchi rolini ta'kidlash kerak, chunki mediator vositachilik jarayonida qaror qabul

qilmaganligi sababli, u tomonlar o'rtasida konstruktiv aloqa qilish tartibini va ularning o'ng tomonga yo'nalishini tashkil qiladi. Bu tomonlarga vaziyatni va nizoni hal qilish variantlarini yaratish jarayonini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, tomonlar qabul qilingan qaror bilan kelishishlari kerak, chunki bu uning bajarilishi uchun asosdir.

*Daromadlilik.* Mediatsiyadagi nizoni hal qilishning vaqti va narxi nizoni hal qilishning boshqa usullari bilan taqqoslaganda ancha past. Mediatsiya protsedurasi o'rtacha bir oy davom etadi. Mediatorning ishi uchun to'lov, qoida tariqasida, muzokaralarga sarf qilingan soatlarga muvofiq amalga oshiriladi va tomonlar tomonidan teng ulushlarda amalga oshiriladi (agar tomonlar boshqacha kelishuvga ega bo'lmasa) [11].

Shu bilan birga, mediatorning faoliyati ham pullik, ham bepul asosda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, tomonlar sud xarajatlaridan (shu jumladan, davlat bojlari to'lash, vakilning xizmatlari uchun to'lov, sayohat, transport va boshqa xarajatlarni) sezilarli darajada tejashadi. Mediatsiya protsedurasidan foydalanish nafaqat pulni, balki nizo ishtirokchilarining vaqtini va hissiy kuchlarini tejashga yordam beradi, chunki u tomonlar uchun bepul va qulay vaqtda, munosib joyda amalga oshiriladi. Protsessual shaklning zarur elementlari va sud atributlarining yetishmasligi nizoli tomonlarga, ishonch va hamkorlik muhitining vujudga kelishiga psixologik qulaylik yaratadi.

*Boshqarish qobiliyati* (jarayonning moslashuvchanligi). Tomonlar uchrashuvlarning qachon bo'lishini, muzokaralarning qancha davom etishini, ular birgalikda yoki alohida bo'lishini mustaqil ravishda, ya'ni individual belgilaydilar. Shunday qilib, mediatsiya protsedurasida tomonlar ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzadilar, mustaqil ravishda mediatorni tanlaydilar va mediatsiya o'tkazish tartibini belgilaydilar. Bu shuni ko'rsatadiki, vositachilikda tomonlar mustaqil ravish-

da o‘zaro manfaatli va kelishilgan natijaga erishadilar [12].

Shuni ta’kidlash kerakki, mediatori tanlashdan oldin tomonlarga mediator to‘g‘risida, xususan, uning kasbiy bilim darajasi, ma’lumoti, tajribasi va boshqalar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar beriladi. Tomonlar, shuningdek, vositachi bilan uchrashib, uning vakolatiga ishonch hosil qilishlari mumkin. Bularning barchasi vositachiga ishonchni ta’minlashga qaratilgan.

*Ta’sirchanligi.* Mediatsiya moslashuvchanligi va dispozitivligi bilan ajralib turishini inobatga olgan holda, nizolarni hal qilishning ushbu usuli yuzaga kelgan muammoning maqbul yechimini ishlab chiqishga imkon beradi, shuningdek, sheriklik aloqalarini mustahkamlashga, tinchlik va konstruktiv mustaqil yechim madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Mediatsiya doirasida tomonlar tomonidan erishilgan kelishuvlar sud qarorlaridan ko‘ra tez bajariladi, deb ishoniladi [2].

*Maxfiylik* tijorat ma’lumotlarini saqlash qobiliyati va obro‘ga oid xavflarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Qonunga muvofiq, mediatorga mediatsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi. Bu, ayniqsa, tomonlar xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lganida va tenderlarda qatnashganda juda muhimdir. Shu bilan birga, tomonlar maxfiylikning qo‘shimcha kafolatlari to‘g‘risida kelishib olish imkoniyatiga ega [13].

*Mediatorning betarafliigi.* Mediator – nizoni biron-bir tomon foydasiga hal qilishdan manfaatdor bo‘lmagan, nizo mavzusiga qiziqmaydigan shaxs. Agar manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lsa, shuningdek, boshqa sabablarga ko‘ra betaraflikni yo‘qotganda, vositachi mediatsiya o‘tkazishni rad etadi. Neytrallik, agar ular boshqacha kelishuvga ega bo‘lmasa vositachining xizmatlarini ikkala tomon tomonidan teng ulushlarda to‘lashi bilan ham ta’minlanadi [14].

### **Material va metodlar**

Maqolaning metodologik asosini umumiy ilmiy usullar (tahlil, sintez, induksiya, deduk-

siya, prognozlash, funksional), xususi ilmiy usullar (tizimli, mantiqiy, tarixiy-huquqiy, qi-yosiy tahlil, huquqiy statistika), eksperiment tashkil etadi.

### **Tadqiqot natijalari**

Ushbu maqola xulosalari va tavsiyalari tomonlarga huquqiy nizolarni hal qilish tizimining alternativ quyi tizimida protseduralardan integrallashgan foydalanishning samarali modelini tanlashga yordam beradi. Bu esa xarajatlarni minimallashtiradi va keyinchalik ma’lum alternativdan foydalanishga bo‘lgan talabni oshiradi. Bundan tashqari keltirilgan taklif hamda tavsiyalardan mamlakatimizda mediatsiya institutini nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishda keng foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, mediatsiya institutini sud hujjatlarini ijro etish borasida Mediatsiya to‘g‘risidagi, Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunlarga va boshqa normativ hujjatlarga qo‘shimchalar kiritish taklifi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda mediatsiyani huquqiy tartibga solish birinchi marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4850-sonli Farmoni qabul qilish bilan boshlangan bo‘lib, unda suddan tashqari fuqarolik va iqtisodiy nizolarini tartibga solishning asosiy tushunchalari, mexanizmlarini belgilovchi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish dasturi belgilandi. Bu esa mediatsiya institutining qonunchiligimizga kirib kelishdagi dastlabki qadam bo‘ldi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmonida ham “Yarashtiruv jarayonlari (mediatsiya) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilab qo‘yildi. Buning natijasida,

2018-yil 3-iyuldagi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi 4754-sonli qarorida ham mediatsiyaga oid bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida sud hujjatlarini ijro etish bosqichida mediatsiya institutini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha bir qancha huquqshunos olimlarning izlanishlari va takliflarini inobatga olgan holda quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

birinchidan, bugungi kunda amaliyotda nizolarni hal qilishda mediatsiya institutini keng jalb etishning eng maqbul yo‘llaridan biri bu targ‘ibot ishlarining keng ko‘lamda yuritilishi deb hisoblaymiz. Bu institutning joriy qilinganligiga uch yildan oshganligiga qaramasdan, shu kunga qadar OAVda to‘liq ma‘lumot berilmagan. So‘rovnoma ishtirokchilarining 28,9 %i mediatsiya to‘g‘risida hech qanday tushunchaga ega emasligini keltirib o‘tgan bo‘lsa, 16,1 %i javob berishga qiynalishi, 55 %i esa ma‘lum tushunchaga ega ekanligini keltirib o‘tgan. Bu to‘g‘risida ma‘lumotga ega shaxslar ham undan foydalanishdan cho‘chishadi, chunki jamoatchilikning ushbu yangi yuridik institutga ishonchi hali shakllanmagan. Shu sababli OAV vositalarida keng miqyosda targ‘ibot-tashviqot ishlarini, ya‘ni mediativ kelishuvning ijobiy tomonlarini ochib beruvchi videorolik tayyorlanish hamda bu videorolik orqali nizo kelib chiqqan tarafdarning ongida mediatsiyaga bo‘lgan ishonchni orttirish lozim. Ushbu tadbirlar mahalliy televideniye, radio, gazeta va internet nashrlarida keng yoritilishi lozim;

ikkinchidan, mediativ kelishuvga erishganda rag‘batlantiruvchi normalarni kiritish lozim. Sudda taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa, “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasiga asosan

,ariza ko‘rmasdan qoldiriladi va davlat boji qaytarib beriladi. Lekin sud hujjatlarini ijro etish bosqichida bunday rag‘batlantiruvchi norma mavjud emas. Agar tegishli qonunlarga shunday normalar kiritilsa, mediativ kelishuv tuzish uchun fuqarolarda qiziqish katta bo‘ladi. Shu sababli ham “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish kiritilib ixtiyoriy ijro muddatida ijroni amalga oshirmagan, lekin keyinchalik mediativ kelishuvga erishgan qarzdorga ijro muddati o‘tganligi sababli qo‘llanadigan jarima jazosidan ozod qiluvchi normani kiritish lozim;

uchinchidan, mediatorlarning biror-bir jamiyati yoki tashkilotining shakllanmaganligi. AQShda mediatorlar uchun bir nechta professional tashkilotlar mavjud. Ushbu guruhlarga Amerika Hakamlik Assotsiatsiyasi, Federal mediatsiya va yarashish xizmati, Millat mediatsiya Kengashi, Fuqarolik mediatsiya Kengashi, Hakamlik sudyalari instituti, AQSh Tinchlik instituti, BMTning siyosiy ishlar Departamenti, Sud hakamlik va mediatsiyalar kiradi. Bu kabi tashkilotlar mediatsiya bo‘yicha ishonch qozongan nomzodlar uchun o‘z tavsiyalari va malakalarini yaratadilar. Bundan tashqari, mediator istalgan shtatda litsenziyasiz, sertifikatlanmagan yoki ro‘yxatga olinmasdan shaxsiy sharoitlarda ishlashi mumkin. Mediatorlarni sertifikatlash, shuningdek, sertifikatlangan mediatorlarning Milliy Assotsiatsiyasi kabi dasturlar orqali onlayn tarzda olinishi mumkin. Mediatorlar tashkilotlari nodavlat tashkilot bo‘lishi, mediatorlarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi jamoat tashkilotlari, birlashmalar yoki notijorat sheriklik shaklida tashkil etilishi lozim. Mediatorlar tashkilotlari mediatsiyada tegishli tayyorgarlikdan o‘tganligi to‘g‘risida hujjat (sertifikat) berish bilan mediatorlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish huquqiga ega bo‘lishi, shuningdek, mediatorlarning tashkilotiga qo‘shilish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim. Bunday holda kirish to‘lovlarini yig‘ishga yo‘l qo‘yil-

masligi lozim. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asosan O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuniga 14<sup>1</sup>-modda (Mediatorlar tashkiloti) hamda 14<sup>2</sup>-modda (Mediatorlar tashkiloti funksiyalari) sifatida qo‘shimchalar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

### **Xulosalar**

Mediatsiya bu munozarali tomonlarni o‘z yechimlarini ishlab chiqishga da‘vat

qiladigan xolis uchinchi shaxs (mediator) yordamida amalga oshiriladigan kelishuv hisoblanib, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qiladigan yarashuv institutidir. Shuningdek, mediatsiya institutini qo‘llash fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini qanchalik yuksakligini bildiradi. Shu sababli ham mediatsiya institutini amaliyotda keng joriy etish zarur.

## **REFERENCES**

1. Kucheryavaya N, doctor of legal sciences, professor Law and duty. 2017. Available at: [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz)
2. Mediator’s notebook “International Alert” and “For Internationalism” Fund, Bishkek, 2013, 18 p. Available at: [www.international-alert.org](http://www.international-alert.org)
3. Konnov A.Yu. Concepts, classifications and basic types of alternative ways of resolving disputes. *Journal of Russian Law*, 2014, no. 12, December.
4. Masadikov Sh.M. Perspektivy mediatsii kak alternativnogo sposoba razresheniya grajdansko-pravovyx sporovin [Prospects for mediation as an alternative method of resolving civil disputes]. Available at: <https://elibrary.ru>.
5. Mamasiddikov. M. Is there a need for mediation? *Right and Duty*. Tashkent, 2017, no. 6 (138). pp. 28–31.
6. National Accreditation Standards for Mediation. 2009, 27 October.
7. Esanova Z.N. Family mediation: issues of applying mediation to the process of compulsory execution of court documents. Proceedings of the republican scientific-practical conference “Issues of further improvement of the field of executive proceedings: harmony of theory and practice”. Tashkent, 2019, pp. 30–37.
8. Nasireva Ye.I. Mediation and implementation of production. Compulsory execution of acts.
9. Dobrolyubova E.A. Mediation kak metod vnesudebnogo razresheniya sporov [Mediation as a method of out-of-court resolution of disputes]. PhD thesis. Moscow, University named after M.V. Lomonosov publ., 2012, 219 p.
10. Rakhmonov. R. Problems of introduction of mediation institution at the pre-trial stage in Uzbekistan. PhD thesis. Tashkent, 2016, 65 p.
11. Kalashnikova S.I. Mediation in the sphere of civil jurisdiction. PhD thesis. 2010, 258 p.
12. Lukyanchikova E.F., Vereshchachi E.A. Primeneniye procedury mediatsii v ipolnitelnom proizvodstve. *Belgorod State National Research University*, 2017, no. 2 (15), p. 10.
13. Khalmukhamedov K. The importance of mediation in resolving disputes. *Bulletin of the Supreme Economic Court*, no. 8, 2015.
14. Ivanova M.S. Mediation as a way to protect the rights and interests of spouses during divorce. PhD thesis. Tver State University, 2014, 244 p.
15. Azimov M.K. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudi: kecha, bugun [Arbitration Court under the Chamber of Commerce and Industry of the Republic of Uzbekistan: yesterday, today]. Current issues of the development of arbitration and mediation: a collection of scientific and practical conference materials. Tashkent, 2010, pp. 8–11.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.